
FARG`ONA SHAHAR HOKIMLIGI VA DAVLAT XIZMATLARI AGENTLIGI HUDUDiy BO`LINMALARI HAMKORLIKDA SUBSIDIYA OLIsh BO`YICHA SHAHAR HUDUDIDAGI MFY LAR VAKILLARIGA TUSHUNCHALAR BERILDI.



Aholi soni o'sishi bilan uy-joyga ehtiyoj ham oshishi tabiiy. Shavkat Mirziyoev Prezident vazifasiga kirishgan ilk pallalardan oq bu dolzarb masalani alohida e'tiborga olib, odamlarni uy bilan ta'minlash choralari ni ko'rdi. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 21 oktyabrdagi qaroriga ko'ra, qishloqlarda, 22 noyabrdagi qarori bilan esa shaharlarda arzon uy-joylar qurish bo'yicha dasturlar qabul qilindi. Ular asosida, o'tgan to'rt yilda 140 mingta uy-joy barpo etildi. Yiliga qurilgan uylarning o'rtacha soni taqqoslanganda, bu avvalgi davrdagi ko'rsatkichdan 4-5 baravar ko'pdir.

■ Bu boradi aholiga to'g'ri tushuncha berish maqsadida Farg'ona shahar hokimligi binosida uchrashuv bo'lib o'tdi. Seminarni shahar hokimini birinchi o'rinbosari B.Mo'minov olib bordi.

Dastlab davlat xizmatlari markazi vakillari ariza beruvchining belgilangan ijtimoiy mezonlarga mos kelishini aniqlash va baholashga mas'ul bo'lgan tashkilotlarning shahar bo'limlari to'g'irisida hamda subsidiya to'lanadigan talabgor shaxslarni tanlab olish bo'yicha tushincha berishdi.

■ Davlat xizmatlari agentligi hodimlari tushintirishiga ko'ra past daromadli, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarga 15 foizlik dastlabki badalning 10 foizi subsidiya sifatida to'lab beriladi. Ya'ni, aholi uy olish uchun dastlabki badalning 5 foizini to'laydi, xolos. Kredit olgan aholi uchun foiz to'lovlarining Toshkent shahrida 12 foizi, boshqa hududlarda 10 foizidan yuqori qismiga subsidiya beriladi.

Misol uchun, qishloqlarda 54 kvadrat metrli kvartira (o'rtacha 216 million so'm) olmoqchi bo'lgan oila 33 million so'mlik dastlabki badalning faqat 11 million so'mini to'laydi, 22 million so'mi byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bu oila imtiyozli davrda oyiga 1 million 500 ming so'm kredit to'lasa, qolgan 1 million 100 ming so'mini har oy davlat qoplab berishi aytiladi.

Uchrashuv ishtirokchilarda katta taassurot uyg'otdi va qiziqarli savol-javoblarga boy tarzda o'tdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-04-19 15:45:30